Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash tushunchasi va yuridik tavsifi

Fuqaroning sog‘lig‘iga fuqarolik huquqida alohida yuridik kategoriya sifatida qaraladi. Fuqaroning sog‘lig‘i nomoddiy ne’matlardan biri hisoblanadi va u fuqarolik huquqlari obyekti tarkibiga kiradi. Tadqiqotchi I.B.Zokirov fikriga ko‘ra, moddiy ko‘rinishdagi ne’matlar (ashyolar) bilan bir qatorda nomoddiy ne’matlar ham fuqarolik huquqining obyekti hisoblanadi.



O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida nomoddiy ne’matlar tushunchasi haqida yozilgan. Unga asosan shaxsning hayoti, sog‘lig‘i, sha’ni, shaxsiy daxlsizligi, qadr-qimmati va pok nomi, kasbiy nufuzi, xususiy hayot daxlsizligi, shaxsiy va ommaviy sirlari, erkin ko‘chib yurish, turish va yashash joyini tanlash, mualliflik va boshqa shaxsiy mulkiy huquqlari nomoddiy ne’matlar hisoblanadi[1].

Yuridik adabiyotlarda fuqaroning sog‘lig‘i tushunchasiga alohida yuridik kategoriya sifatida emas, shaxsning nomulkiy huquqlari tarkibidagi elementlardan biri sifatida qarash hollari uchraydi. Xususan, ayrim mualliflarning fikricha, “sog‘liqqa

[1] Зокиров И.Б. Фуқаролик ҳуқуқи. –Тошкент: ТДЮИ, 2009. –218 б.

bo‘lgan huquq jismoniy shaxs – fuqaroning shaxsiy nomulkiy huquqi bo‘lib, uning muhofazasini amalga oshirishni talab qilish va uning buzilmasligiga bo‘lgan huquq odatda fuqarolik-huquqiy vositalar bilan amalga oshiriladi. Shu sababli sog‘liqni saqlash huquqi yoki fuqaroning o‘z sog‘lig‘iga bo‘lgan huquqi shaxsiy nomulkiy huquq sifatida FKning 99-moddasida o‘z ifodasini topgan”[2].

Shuningdek, adabiyotlarda fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlash bevosita fuqaroning tabiiy huquqi bo‘lgan yashash huquqidan kelib chiqishi va u bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi qayd etiladi. Jumladan, I.I.Nasriyev ta’kidlashicha, inson shaxsiy huquq va erkinliklari ichida yashash huquqi alohida ahamiyat kasb etadi[3].

Fuqaroning sog‘lig‘i masalasi o‘ziga xos nomoddiy ne’mat va ijtimoiy qadriyat, shaxsiy nomulkiy huquq sifatida har tomonlama talqin etilishi va tushinilishi mumkin bo‘lgan kategoriya hisoblanadi. Bunda fuqaro sog‘lig‘i tushunchasi biologik individ sifatida inson organizmining belgilangan darajada ishlashi tushunilishi ham mumkin. Biroq yuridik kategoriya sifatida fuqaroning sog‘lig‘i avvalo uning shaxsiy nomulkiy huquqi hamda fuqarolik huquqlarining obyekti sifatida nomoddiy ne’matdir. Shu sababli mazkur nomoddiy ne’matning fuqarolik huquqlari obyektlari tizimidagi o‘rni belgilanishi talab etiladi. FKning 81-moddasi bo‘yicha fuqarolik huquqlari obyektlari tarkibiga shaxsiy nomulkiy huquqlar va boshqa moddiy hamda nomoddiy boyliklar kiradi. Shunga ko‘ra, fuqarolarning sog‘lig‘i shaxsiy nomulkiy huquq va nomoddiy boylik sifatida tan olinishini ko‘rsatadi.

Ma’lumki, shaxsiy nomulkiy huquqlar deganda, odatda bevosita shaxsdan begonalashtirilishi mumkin bo‘lmagan va har doim fuqaroning o‘zi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan huquqlar tushuniladi. Bunda shaxsiy nomulkiy munosabatlardan kelib chiqadigan huquqlar va shaxsiy huquqlar farqlanishi lozim. Odatda shaxsiy nomulkiy huquqlar fuqarolarga tegishli bo‘ladi. Masalan, sha’n, qadr-qimmatga bo‘lgan huquq, yashash huquqi, sog‘liqqa bo‘lgan huquq.

Lekin ayrim shaxsiy nomulkiy huquqlar bir vaqtning o‘zida fuqarolar va yuridik shaxslarga ham tegishli bo‘lishi mumkinligi yuridik adabiyotlarda qayd etilgan. Bunga ishchanlik obro‘siga bo‘lgan huquq va nomga (fuqaro ismga va yuridik shaxs firma nomiga) bo‘lgan huquq misol bo‘ladi.

Shaxsiy nomulkiy munosabatlardan kelib chiqadigan nomulkiy huquqlar sifatida firma nomi, tovar belgilari, tovar kelib chiqqan joy nomi, patentga bo‘lgan huquqlarni kiritish mumkin. Bu huquqlar bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o‘tkazilishi mumkin[4]. Fuqaroning sog‘lig‘i esa chin ma’nodagi shaxsiy nomulkiy huquq va nomoddiy ne’mat sifatida namoyon bo‘ladi. Sog‘liq fuqaroning tabiiy huquqi hisoblanib, uning roziligisiz mazkur huquqni buzishga hech kimning haqqi yo‘q.

Agar yashash huquqi insonning shaxs va individ sifatida borligini anglatsa, fuqaroning sog‘lig‘iga bo‘lgan huquq muayyan ma’noda fuqaroning o‘ziga tegishli bo‘lgan va u tomonidan tasarruf etilishi mumkin bo‘lgan huquq sanaladi. Bu holat amaldagi qonunchilikda ham mustahkamlangan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasi 3-qismiga ko‘ra, shaxsning roziligisiz uning organizmida tibbiy yoki ilmiy tajribalar o‘tkazilishi mumkin emas. Demak, shaxs o‘zining sog‘lig‘iga bo‘lgan huquqni mustaqil tasarruf etishi va o‘z sog‘lig‘i bilan bog‘liq tibbiy tajriba o‘tkazishga rozi bo‘lishi mumkin. Biroq fuqaroning sog‘liq huquqi va uning yashash huquqini tasarruf etish o‘rtasida farq mavjudligini e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

Fuqaro sog‘lig‘i huquqini tasarruf qilishida erkin harakat qiladi va uning bevosita roziligi bilan sog‘lig‘i bo‘yicha muayyan tibbiy operatsiyalarni amalga oshirish mumkin. Masalan, fuqaroning hayotini saqlab qolish uchun tibbiy muolajani amalga oshirishda dastlab bemorning roziligi talab qilinadi va agar bemor roziligini olishning imkoni bo‘lmasa uning yaqin qarindoshlari roziligi talab etiladi. Albatta, bu holat fuqarolik huquqlarini amalga oshirish shartlari va qoidalariga to‘g‘ri kelmaydi. Zero, FKning 9-moddasida “fuqarolik huquqlarini amalga oshirish boshqa shaxslarning huquqlarini hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart”ligi belgilangan holda, huquq egasining manfaatlariga zid kelmasligi sharti belgilanmagan.

---

[2] Якубова И.Б.

[3] Насриев И.И. Шахсий номулкий ҳуқуқларни амалга ошириш ва муҳофаза қилишнинг фуқаролик-ҳуқуқий муаммолари. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2006. – 33-б.

[4] Сергеев А.П. Право интеллектуальной собственности в Российской Федерации. Учебник. – М.: Проспект, 2001. – 27 с.

Biroq fuqaroning hayoti va sog‘lig‘iga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan tibbiy amaliyotni o‘tkazish mumkin emasligi insonparvarlik tamoyillari va huquqning umumiy mazmunidan kelib chiqadi. Shu bilan birga, FKning 9-moddasi 5-qismida fuqarolar va yuridik shaxslarning boshqa shaxsga zarar yetkazishga, boshqacha shakllarda huquqni suiiste’mol qilishga, shuningdek huquqni uning maqsadiga zid tarzda amalga oshirishga qaratilgan harakatlariga yo‘l qo‘yilmasligi belgilangan bo‘lib, fuqaro tana a’zolarini sotib olishni talab qilishi, o‘zining o‘limiga olib kelishi mumkin bo‘lgan tibbiy amaliyot o‘tkazilishini so‘rashi mumkin emas. Bu holat sog‘liqqa bo‘lgan huquqni suiiste’mol qilish hisoblanadi va bunga yo‘l qo‘yilmaydi.

Yashash huquqi ham tabiiy huquq bo‘lib, inson tug‘ilishi bilan vujudga keladi va shaxsiy nomulkiy huquq sifatida bevosita shaxs tomonidan tasarruf etiladi. Tadqiqotchi I.I.Nasriyevning fikricha, yashash huquqi eng oliy huquq ekani O‘zbekiston Konstitutsiyasida, FKning 99-moddasida va boshqa qonun hujjatlarida o‘z aksini topgan. Fuqarolik kodeksi shaxsning hayotini nomoddiy ne’mat sifatida fuqarolik huquqining obyekti deb tan oladi.

Inson hayotiga ta’rif berish kerak bo‘ladigan bo‘lsa, uning yuridik chegaralarini aniqlab olish juda muhimdir. Yashash huquqi fuqaroning tabiiy huquqi sifatida undan begonalashtirilmaydigan va mahrum etilishi mumkin bo‘lmagan huquq hisoblanadi. Shu sababli ham mazkur huquq qaysi paytdan boshlab vujudga kelishi masalasini aniqlash huquqshunoslik fanlari oldidagi vazifalardan biri sanaladi.

Jahon huquqshunosligida yashash huquqi fuqaroning sog‘lig‘i va uni asrashga bo‘lgan yuridik va amaliy xatti-harakatlar obyektini o‘z ichiga oladi. Yashash huquqiga qadimgi Rim yuristlari tomonidan e’tibor qaratilgan. Rim huquqiga binoan homila huquq subyekti hisoblanmagan, shu sababli ham uning yashash huquqiga ega ekanligi belgilanmagan. Biroq homila tirik tug‘ilish sharti bilan huquq va majburiyatlarga ega shaxsga tenglashtirilishi mumkinligi nazarda tutilgan.

Bunday qoida bugungi kunda qit’a huquq tizimiga mansub ko‘plab davlatlar qonunchiligi uchun asos vazifasini o‘taydi. Xususan, mamlakatimizda ham homila tirik tug‘iladigan bo‘lsa, merosxo‘r bo‘lishi mumkinligi belgilangan. Umumiy huquq mamlakatlarida esa homila hali huquqqa ega emas va u tirik tug‘ilgandan so‘nggina huquqqa ega bo‘ladi.

Bir qator mamlakatlarda esa yashash huquqi homiladorlik paytida vujudga kelishi belgilangan. Jumladan, Irlandiya Konstitutsiyasining 40-moddasida davlat homilaning yashash huquqini tan olishi belgilangan bo‘lib, bunda ayolning hayotiga xavf solishi mumkin bo‘lgan hollardan tashqari, homilani sun’iy tushirish taqiqlanadi. Slovakiya davlatida ham homila yashash huquqiga egaligi nazarda tutilgan (Slovakiya Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasi). Chexiyada ham hali tug‘ilmagan bolaning huquqlari himoya qilinishi nazarda tutilgan va bu holat Chexiya Respublikasi asosiy huquqlar va erkinliklar xartiyasining 6-moddasida nazarda tutilgan.

Qolaversa, Qur’oni karimda insonning paydo bo‘lishi va unga jon bag‘ishlanishiga oid oyatlarda aniq holatlar belgilangan. Masalan, Qur’oni karimning “Mo‘minun” surasi 12-14-oyatlarida shunday deyiladi: “Qasamki, batahqiq, insonni loy sulolasidan yaratdik. So‘ngra uni mustahkam qarorgohda nutfa qildik. So‘ngra nutfadan alaqa yaratdik, alaqadan chaynalgan go‘sht yaratdik, chaynalgan parcha go‘shtdan suyak yaratdik, bas, suyakka go‘sht qopladik, so‘ngra, uni boshqa bir jonzot etib paydo qildik. Bas, yaratguvchilarning eng yaxshisi Alloh barakotli (buyuk)dir”.

Islom dinida homila muayyan davrdan keyin inson sifatida e’tirof etiladi va tirik jonzot kabi yashash huquqiga ega bo‘ladi. Biroq qonunchilik nuqtayi nazaridan islom huquqida homilaning yashash huquqi borasida aniq qoidalar o‘rnatilmagan.

Yevropa davlatlari qonunchiligida ham yashash huquqining boshlanish payti va homilaning huquqdorligi masalasida aniq normalar o‘rnatilmaganligini kuzatish mumkin. Masalan, 1804-yilgi Fransiya Fuqarolik kodeksi va 1896-yilgi Germaniya Fuqarolik tuzuklarida bu borada aniq qoidalar nazarda tutilmagan. Qolaversa, Germaniya FTda huquq layoqati tug‘ilgandan so‘ng vujudga kelishi belgilangan (Germaniya FTning 1-paragrafi). Biroq mazkur davlat qonunchligida ham homilaning tirik tug‘ilish sharti bilan muayyan

huquqlarga ega bo‘lishi nazarda tutilgan. Bunday qoidalar 1811-yilgi Avstriya Fuqarolik kodeksining 22-paragrafida, Shveysariya Fuqarolik kodeksining 31-moddasida, Gretsiya Fuqarolik kodeksining 36-moddasida, Braziliya Fuqarolik kodeksining 4-moddasida nazarda tutilgan.

Tadqiqotchi I.Nasriyev homilaning huquqdorligi va yashash huquqi tahlilida quyidagi mushohadalarni bildirib o‘tadi: ayrim hollarda chaqaloq onaning o‘limidan keyin tug‘ilishi mumkin (bunday hollar onaning kasalligi yoki boshqa sabablar natijasida yuz berishi mumkin). Qonun hujjatlarida tibbiyot xodimlari bolaning yashashiga imkon beradigan barcha chora-tadbirlarni ko‘rishi shartligini belgilab qo‘yish lozim, toki onaning bo‘yidagi chaqaloqni saqlab qolishning barcha choralari ko‘rilmagan hollarda javobgarlik yuzaga kelishi shart bo‘lsin. Shuningdek, ona homilasidan ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanish yoki foydalanishni taqiqlash masalasi qonuniy hal bo‘lmog‘i lozim.

N.A.Ashurovaning fikricha, huquq layoqati kishi tug‘ilganidan to o‘limigacha undan ajralmaydi. Yangi tug‘ilgan chaqaloq ham huquqlarga, chunonchi, yashash huquqi, davolanish huquqi, ovqatlanish huquqi, erkin bo‘lish huquqi kabi qator tabiiy huquqlarga, shu jumladan, ota-onalardan tarbiya olish va boshqa huquqlarga ega bo‘ladi. Kishi tug‘ilishi bilan uning hayoti boshlanganidek, tug‘ilishi bilan huquq subyekti sifatida yashashi ham boshlanadi.

R.J.Matqurbonovning ta’kidlashicha fuqarolik huquqi layoqatining boshlanish va tamom bo‘lish payti FKda (17-modda 2-qismi) hech qanday o‘zgarishlarga uchramadi va bu holatga nisbatan qonun chiqaruvchi tomonidan ifodalangan konservatizm to‘liq asosga ega.

Mazkur fikrlardan kelib chiqib, huquq layoqati vujudga kelishini urug‘lanish payti bilan bog‘lash maqsadga muvofiq emas degan xulosaga kelinadi, binobarin, bu payt taxminan aniqlanadi;

ikkinchidan, inson hayoti qaysi paytdan boshlanadi degan savolga aniq javob mavjud emas;

uchinchidan, fuqaro huquq subyekti sifatida homiladorlikning turli bosqichlarida embrion sifatida ro‘yxatdan o‘tadimi yoki tug‘ilgan bola sifatidami kabi savollarning bo‘lishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi[5].

Demak yashash huquqi va fuqaroning sog‘lig‘ini saqlash munosabatlari insonning homilalik paytidanoq boshlanadi. Homilaning huquqiy muhofazaga olingani amaldagi qonun hujjatlarida ham belgilanganligi fikrimizning dalilidir. Amaldagi FK homilaning huquq subyektli ekanliginigina nazarda tutsa, jinoyat qonunchiligida homilani himoya qilish borasida bir qator normalar mustahkamlangan. Masalan, JKning 104-moddasida qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish natijasida homilaning tushishi jinoyat hisoblanishi va uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilangan. Bundan tashqari, JKning 114-115-moddalari bevosita homilani sun’iy tushirish bilan bog‘liq jinoyatlarni nazarda tutadi. Xususan, JKning 115-moddasiga binoan ayolni o‘z homilasini sun’iy ravishda tushirishga majburlash, agar homila sun’iy tushirilgan bo‘lsa, bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravariga jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

M.H.Rustamboyevning fikricha, homilaning tushishi nafaqat jismoniy, balki ruhiy zo‘rlik ishlatish (hujum tufayli qattiq qo‘rqish, cho‘chish va hokazo) natijasida ham sodir bo‘lishi mumkin. Homiladorlik muddati jinoyatni kvalifikatsiya qilish uchun ahamiyatsizdir.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 2007-yil 27-iyundagi “Badanga qasddan shikast yetkazishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti” to‘g‘risidagi qarorida ko‘rsatilishicha, aybdor jabrlanuvchining homiladorligini bilmagan holda u tomonidan sodir etilayotgan huquqqa xilof harakatlar (uning jabrlanuvchiga ta’siri) jabrlanuvchi a’zo to‘qimalarining anatomik butunligining buzilishiga yoki ularning fiziologik funksiyasining buzilishiga sabab bo‘lishi mumkinligini anglagan bo‘lishi lozim.

Mazkur holatda jinoyat qonunchiligi bevosita homilaning o‘zini emas, balki homilador ayolning sog‘lig‘ini himoyalashni nazarda tutadi. Biroq homilador ayolning himoya etilishi homilaning ham himoyalanishini anglatadi.

Abrorbek KARIMOV,
Namangan tumanlararo
iqtisodiy sudining raisi

[5] Маткурбанов Р.Ж. Проблемы правосубъектности граждан (физических лиц) в гражданском праве: Автореф. дис... канд. юрид. наук. –Ташкент: 2009. – 27 с.